

YANGI O‘ZBEKISTONDA DEMOKRATIK ISLOHOTLAR GENDER ADOLAT YO‘LIDA

Abdiqahhorov Davlatbek Muzaffar o‘g‘li
Xaitmurodov Sardorbek Xasan o‘g‘li
Hamroqulova Durdoni Sherali qizi

**Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti Yurisprudensiya (faoliyat
yo‘nalishlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi talabalari**

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda gender tenglik borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan qonunlar orqali erkaklar va xotin-qizlar uchun teng huquq va erkinliklar yaratish borasidagi kafolatlar haqida so‘z boradi. Shuningdek, xotin-qizlar huquqlarini ta‘minlashda qonunlarning o‘rni, ularning huquqlarini buzilishini oldini olish, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlariga nisbatan jinoiy jazo tizimini kuchaytirish borasidagi takli va mulohazalar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: gender tenglik, xotin-qizlar huquqi, jazo tizimi, erkaklar va ayollar, gender tenglik ko‘rsatkichi, imtiyozlar, reabilitatsiya, stereotip, ayol rahbar, ayol elchi

Annotation: This article talks about the reforms implemented in our country regarding gender equality, in particular, the guarantees of creating equal rights and freedoms for men and women through laws. Also, the role of laws in ensuring women's rights, prevention of violation of their rights, strengthening of the criminal punishment system in cases of harassment and violence against women will be discussed.

Keywords: gender equality, women's rights, penal system, men and women, gender equality indicator, benefits, rehabilitation, stereotype, female leader, female ambassador

Tahlil

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ijtimoiy, madaniy hamda siyosiy sohada ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, inson qadri tamoyili asosida muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev gender tenglik borasida xotin-qizlar huquq va erkinliklariga, ularning ta‘lim olishi, yaxshi mehnat sharoitlarida ishlashlari, shuningdek, tazyiq va zo‘ravonlikdan himoyalaniishlariga alohida e‘tibor qaratdilar. Bu

o'z navbatida mamlakatimizda insonga e'tiborning yangicha na'munasi sifatida demokratik davlat sifatidagi o'rnimizni mustahkamladi.

Gender tenglik o'zi nima? Gender tenglik bu – adolat. Erkak va ayol uchun jamiyatda tenglik asosida bir xil huquqlar va erkinliklar berish, ularning madaniy, siyosiy va ijtimoiy sohalarda o'zini ko'rsatishida keng imkoniyatlar berish. Bugungi kunda ayollarimiz tomonidan ilm-fan sohasida keng yutuqlarga erishayotganligining guvohi bo'lamiz. Bu o'z o'zidan emas albatta, zero, 6-7 yil oldin xotin-qizlar ta'lim olishiga jamiyatda negativ qarashlar mavjud edi. Bugun esa gender tenglik borasidagi islohotlar o'laroq xotin-qizlar ta'lim olishlariga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratilib, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olishlari uchun davlat grandlari soni oshirilmoqda.

2019-yilda "Erkaklar va ayollar uchun teng huquq va imkoniyatlar yaratish to'g'risidagi" qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun orqali xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirishga, ularning rahbarlik lavozimlarida ishlashlariga, ta'lim olishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha masalalarni hal etish, xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida gender tenglikka erishishga, oilani mustahkamlashga, onalik, otalik hamda bolalikni muhofaza qilishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirishda, jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligiga erishishga, davlat xizmatining rahbarlik lavozimlariga ilgari surish chog'ida jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik uchun zarur choralarni ko'rishga, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarni ishlab chiqishda hamda amalga oshirishga davlat siyosatida darajasida e'tibor qaratilganligi albatta demokratik davlat sifatida rivojlanayotganligimizni tasdiqlaydi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz gender tenglikni, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash borasidagi ishlarning joriy holatini o'rganish, mavjud muammolarni tanqidiy jihatdan tahlil qilish va bartaraf etish choralarni ko'rish orqali xotin-qizlarga jamiyatda tenglik adolati ta'minlanmoqda. Shuningdek, tizimli ishlar samarasi o'laroq hozirda xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy faolligini erkaklar bilan teng ravishda oshirish uchun davlat organlarining jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishishga qaratilgan faoliyatini muvofiqlashtirilmoqda.

Hozirda gender tenglik tushunchasini har kim har xil tushunish holatlari uchramoqda. Ba'zilar gender tenglik borasidagi islohotlarni Yevropa davlatlarining

oqimi sifatida negativ qarash bilan baholamoqda. Ayollar huquqlarini ta'minlash, ularga davlat hokimiyatining rahbarlik lavozimlarida ishlashlari uchun huquqlar kafolatlash, eng asosiysi ayolni e'zozlash va hurmat qilib, uni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishni Yevropadan olingan oqim deb baholash noto'g'ri. Zero, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Narbayeva ta'kidlaganlaridek, biz o'zbekona gender tenglikni ta'minlayapmiz, biz gender tenglik siyosati o'laroq milliyligimiz va o'zbekona qadriyatlarimizga zid bo'lmagan gender siyosatini yuritmoqdamiz.

Gender tenglik borasidagi salmoqli islohotlardan yana biri bu 2030 yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining qabul qilinganligidir. Albatta ushbu strategiya gender tenglik borasidagi ishlar va kelgusidagi rejalarni o'z ichiga olib, mamlakatimizning gender tenglik borasidagi islohotlariga dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1 300 nafardan ortiq, shu jumladan vazirlik va idoralarda 45 nafar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasida 39 nafar, mahalliy davlat hokimiyati organlarida 207 nafar ayol rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga 2019-yilda bo'lib o'tgan saylovlarda ro'yxatdan o'tgan 21 435 000 nafar saylovchining qariyb 50 foizi yoki 10 825 641 nafari xotin-qizlardir.

Ushbu ko'rsatkichlar so'nggi yillarda mamlakatimizdagi muhim islohotlarning amaliy natijasi desak bo'ladi. Xususan, O'zbekiston tarixida birinchi marta milliy parlamentda xotin-qizlar soni Birlashgan Millatlar Tashkilotining tavsiyalariga mos darajaga yetdi. Mamlakatimiz parlamenti xotin-qizlar soni bo'yicha dunyodagi 190 ta milliy parlamentlar o'rtasida 37-o'ringa ko'tarildi. Bu esa davlat va jamoat ishlarida xotin-qizlarning huquqlari to'liq kafolatlanganligidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi
3. O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi
4. O'zbekiston Respublikasining "Erkaklar va ayollar uchun teng huquq va imkoniyatlar to'g'risida"gi Qonuni
5. Oliy Majlis Senatining "2030 yilga qadar gender tenglikka erish strategiya" to'g'risidagi qarori